

**DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA
YOSHDAGI BOLALAR LIDERLIK QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI INNOVASION METOD VA
TEXNOLOGIYALARI**

Azizova Ziroat Bahadirovna

Qo'qon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada differensial yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar liderlik qobiliyatini rivojlantirishning samarali innovasion metod va texnologiyalari hususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Ma'lumki, har bir metod ma'lum ta'limiy vazifani muvaffaqiyatli hal etishi, qolganlari esa ayni holat uchun birmuncha samarasiz bo'lishi ham mumkin. Universal ta'lim metodlari mavjud bo'lmagani bois mashg'ulotlarda turli ta'lim metodlaridan yoki ularning majmuasidan foydalanish mumkin bo'ladi.

Kalit so'zlar. Metod, texnologiya, differensial yondashuv, ta'lim jarayoni, rivojlanish, liderlik qobiliyati.

**ЭФФЕКТИВНЫЕ ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ И
ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ЛИДЕРСКИХ НАВЫКОВ У ДЕТЕЙ
ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА ОСНОВЕ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО
ПОДХОДА**

Азизова Зироат Бахадировна

Независимый исследователь Кокандского ГУ

Абстрактный. В статье представлены некоторые идеи эффективных инновационных методов и технологий развития лидерских качеств у детей дошкольного возраста на основе дифференцированного подхода. Известно, что каждый метод может успешно решать определенную образовательную задачу, в то время как другие могут

оказаться неэффективными для той же ситуации. Поскольку универсальных методов обучения не существует, на уроках можно использовать разные методы обучения или их комбинацию.

Ключевые слова. *Метод, технология, дифференцированный подход, образовательный процесс, развитие, лидерские качества.*

EFFECTIVE INNOVATIVE METHODS AND TECHNOLOGIES OF DEVELOPING LEADERSHIP SKILLS OF PRESCHOOL CHILDREN ON THE BASIS OF A DIFFERENTIAL APPROACH

Azizova Ziroat Bahadirovna

Independent researcher at Kokand State University

Annotation. *This article presents some ideas on effective innovative methods and technologies of developing leadership skills of preschool children on the basis of a differential approach. It is known that each method can successfully solve a certain educational task, while others may be somewhat ineffective for the same situation. Since there are no universal educational methods, it is possible to use various educational methods or a combination of them in classes.*

Keywords. *Method, technology, differential approach, educational process, development, leadership skills.*

Ijtimoiy muayyan shaxsning turli faoliyati rivojlanishi bolalikdan, ya'ni-maktabgacha yoshdan boshlab shakllanishi maqsadga muvofiq. Inson hayotidagi bu davr kelajakdagi shaxsning poydevorini qo'yish uchun eng maqbul hisoblanadi, bu bosqichda bolalarda faoliyat turlari odamlar, umuman jamiyat va o'zi uchun muayyan munosabatlar rivojlanadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda faoliyatning namoyon bo'lish xususiyatlari va shartlarini, shuningdek liderlik potensialini shakllantirishda maqbul innovation metod va texnologiyalarni tanlash muhim o'rin tutadi. Ushbu innovation metodlar maktabgacha yoshdagi bolalarni maqsadli shakllantirish, shuningdek, hozirgi va kelajakdagi muhitda o'zini o'zi anglash va rivojlantirishda, zamonaviy madaniyat bilan tanishtirishda hamda ijtimoiylashuvi uchun samarali maqbul shakllardir. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovation

metodlarni o‘rinli qo‘llash tarbiyalanuvchilarda nizolarni oldini olish va hal qilish ko‘nikmalari, jamoada muloqot qilish qobiliyatini shakllantirishda ham ulkan hissa qo‘shadi [1.B.100].

Innovasiya - bu tubdan yangi komponentni yaratish va keyinchalik amalga oshirish, buning natijasida atrof-muhitda sifat o‘zgarishlari sodir bo‘ladi.

Texnologiya - bu har qanday biznes, mahorat, san'atda ishlatiladigan texnikalar to‘plami [2.B.104].

Ta'lim metodlari – ta'lim jarayonining murakkab tarkibiy komponenti bo‘lib, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarining barcha yo‘nalishlarini yoritishga xizmat qiladi, ular o‘rtasida ko‘p sonli aloqa hamda bog‘lanishlarni yuzaga keltiradi. «Ta'lim metodi – belgilangan maqsadga erishishni ta'minlovchi, algoritmlashtirilgan, muayyan mazmunga ega harakatlar tizimidir», deydi P.I.Podlasiy. Olim bu boradagi qarashlarini davom ettirib, yozadi: «Ta'lim metodlari tasnifi ularning ma'lum belgilari bo‘yicha tartibini ifodalovchi tizimdir. Hozirgi vaqtda ko‘plab ta'lim metodlari ma'lum. Biroq bugun yetakchi sanaluvchi didaktik g‘oya, yagona va o‘zgarmas metodlar majmuini yaratishga intilish samarasiz ekanligini ta'kidlab turibdi. O‘qitish – favqulodda harakatchan dialektik jarayon. Ta'lim metodlari tizimi ham bu harakatlanishni aks ettiradigan darajada jo‘shqin bo‘lishi, metodlarni qo‘llash amaliyotidagi doimiy o‘zgarishlarni hisobga olishi kerak» [3.B.475-476]. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, ta'lim metodlari dogma emasligi va ulardan ta'limiy faoliyatlarning har bir ko‘rinishida o‘ziga xos ravishda foydalanish mumkinligini ta'kidlash joiz.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim amaliyotida ta'lim metodlarining quyidagi turlaridan keng foydalaniladi:

ko‘rgazmali metodlar - (rasmlar, fil'mlar, taqdimotlar, mul'timedialar, komp'yuter dasturlari)ni namoyish etish, namuna ko‘rsatish kabi metodlarni qamrab oladi;

og‘zaki metodlar - hikoya, suhbat, savol-javob

amaliy metodlar - mashq, tajriba, modellashtirish kabi metodlar o‘rin oladi.

Har bir metod ma'lum ta'limiy vazifani muvaffaqiyatli hal etishi, qolganlari

esa ayni holat uchun birmuncha samarasiz bo'lishi ham mumkin. Universal ta'lim metodlari mavjud bo'lmagani bois mashg'ulotlarda turli ta'lim metodlaridan yoki ularning majmuasidan foydalanish mumkin bo'ladi.

Ta'lim metodlarini tanlash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- didaktik maqsadga ko'ra;
- ta'lim mazmuniga ko'ra;
- bolalarning ko'nikmalarni egallash va rivojlanish darajasiga ko'ra;
- tarbiyachining tajribasi va kasbiy tayyorgarlik darajasiga ko'ra.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'limiy faoliyatlarda tarbiyachi tomonidan qo'llanilayotgan ta'lim metodlari majmuasi kichik guruhdan o'rta guruhga, undan yuqori va maktabga tayyorlov guruhlariga o'tish asnosida ham o'zgarib, murakkab xususiyat kasb etib boradi. Ushbu jarayonda ayrim metodlardan ko'proq foydalanilsa, ba'zilarini qo'llashga bo'lgan ehtiyoj kamayadi. Ta'lim metodlaridan foydalanish ko'lami tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi va mahorati darajasiga bog'liq holda o'zgarib turadi.

Ta'limning ko'rgazmali metodlari o'rganilayotgan ob'ektni har tomonlama ochib berishda qo'l keladi va predmetning tashqi ko'rinishi, ichki tuzilishi haqida to'laqonli ma'lumot olish nazarda tutilgan holda ulardan maktabgacha ta'lim muassasalari o'qitish tizimida keng foydalaniladi. Tabiiy ob'ektlarni namoyish qilishda, odatda uning tashqi ko'rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o'zaro munosabatlari)ga e'tibor qaratiladi, so'ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o'rganishga o'tiladi. Ko'rsatish ko'p holatlarda o'rganilayotgan ob'ektlarning o'zi yoki rasmi yoxud chizmasi yordamida kuzatiladi. Tajribalar namoyishi esa chizib ko'rsatish yoki tarbiyachining maxsus jihozlar yordamida namoyish etishi hisobiga amalga oshadi.

Predmetlar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish yanada ko'proq didaktik samara beradi. Biroq, bunday namoyishni amalga oshirish har doim ham mumkin bo'lavermaydi. Shu sababli tarbiyachilar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun'iy muhitga murojaat qilishadi (masalan, sayyoralar maketlari va rasmlari, hayvonlar bilan "Hayvonot bog'ida", sabzavotlar bilan "Dalada",

mevalar bilan “Bog‘da” nomli rangli suratlar orqali tanishish) yoki sun'iy ravishda yaratilgan ob'ektlar (maket, model, mulyaj va boshqalar)dan foydalaniladi.

Ko‘rgazmali metod yordamida tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni mustaqil ravishda ob'ektlarni o‘rganish, zaruriy o‘lchov ishlarini olib borish, aloqadorlikni aniqlash, shuningdek, hodisalarning mohiyatini anglab yetishga, bir so‘z bilan aytganda, faol bilish jarayoniga yo‘naltirishi lozim bo‘ladi.

Ko‘rgazmali metodlardan bolalarda liderlikni shakllantirishda foydalanilganda samaradorlikka erishish uchun quyidagi shartlarga amal qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- ko‘rgazmali materiallarning bolalar yoshi va rivojlanish darajasiga mos kelishi;
- tavsiya etilayotgan ob'ektning guruhdagi barcha bolalar uchun qiziqarli bo‘lishi;
- namoyish etilayotgan ob'ektlar barcha tarbiyalanuvchilarga yaxshi ko‘rinib turishi;
- namoyish ob'ektga qo‘shimcha ravishda maket, jihoz yoki tajriba sxemasini chizib ko‘rsatish asnosida amalga oshirilishi;
- namoyish va illyustratsiya o‘quv materialining mazmuni bilan uyg‘un bo‘la olishi;
- namoyish ob'ektining liderlikni shakllantirishga yo‘naltiruvchi o‘rinlariga alohida e‘tibor qaratilishi;
- bolalarga o‘ylab ko‘rish va mulohaza aytib, munosabat bildirish uchun ma'lum vaqt ajratilishi va hk.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida differensial yondashuv asosida bolalarda liderlikni shakllantiruvchi metodlar qatoriga kiruvchi ta'limning og‘zaki metodlaridan foydalanish (suhbat, hikoya, tushuntirish, ko‘rsatma berish, ma'ruza) tarbiyalanuvchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirish asosida amalga oshiriladi, shu bilan birga og‘zaki metodlarida bilimlarni uzatish vositasi sifatida pedagog nutqi muhim ahamiyatga ega. Bu o‘rinda tarbiyachining tarbiyalanuvchilar faoliyatiga rahbarligi mavzuni to‘g‘ri tanlash, tushunarli ochib berish, bolalar faoliyatini

boshqarishdan iborat bo'ladir [4.B.358].

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish, uning yangi sifat darajasiga o'tish innovasion shakllar, usullar, vositalar va innovasion texnologiyalarsiz amalga oshirilmaydi. Tarbiyachining innovasion faoliyati o'quv jarayonining zaruriy qismidir. Innovasiyalarni joriy etish tarbiyachilarga o'z faoliyatini o'zgaruvchan sharoitlarga moslashtirish va maktabgacha ta'lim jarayonlarida nostandart usullardan foydalanish zarurligini anglatadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida liderlikni shakllantirishda tarbiyachidan ta'limiy faoliyatga differensial yondashuv asosida turli innovasion metodlarni qo'llash talab etiladi.

Zamonaviy ma'noda innovasiya - bu "biror narsaning yangi shakllari yoki elementlarining namoyon bo'lishidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachisining innovasion faoliyati rivojlanayotgan davrdagi yangiliklarni ishlab chiqish, ta'limiy faoliyat jarayoniga yangi shakllar, usullar, texnikalar, vositalar, texnologiyalar, variativ dasturlarni kiritishdan iborat. Shuningdek, innovasiyalarni amalda qo'llash, uzluksiz kasbiy rivojlanish, kasbiy bilimlardan o'rinli foydalanish ham pedagog mahoratining ajralmas qismi hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida innovasion metod va texnologiyalardan foydalanishning maqsadi bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratishdir, bu nostandart va ijodiy fikrlashga qodir maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy va shaxsiy fazilatlarini tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, qiziquvchanlik, liderlik, o'zini ijodiy namoyon qilish qobiliyatini, intellektual fikrlash va ijodiy tasavvur darajasini oshirishga qaratilgan zamonaviy innovasion texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish, turli tadbirlarda bolalarning kommunikativ, kognitiv, o'yin va boshqa kompetensiyalarini, ota-onalar, tarbiyachilar va mutaxassislarning to'liq jismoniy, ma'naviy, psixo-emosional salomatligini ta'minlash, shaxslararo munosabatlarni to'g'ri shakllantirish uchun sharoit yaratishga imkon beradi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim amaliyoti shuni ko'rsatdiki, an'anaviy ish shakllari yordamida bu muammoni to'liq hal qilish mumkin emas.

Maktabgacha ta'limdagi innovasion texnologiyalar zamonaviy tarkibiy qismlar va texnikalarni yaratishga qaratilgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi ta'lim

jarayonini modernizasiya qilishdir. Buning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglar bolalarni tarbiyalash va intellektual rivojlantirishning eng yangi modellarini ishlab chiqadilar. Kasbiy faoliyatida tarbiyachilar qabul qilingan modelga to'liq mos keladigan uslubiy vositalar, o'qitish usullaridan foydalanadilar.

Pedagogik texnologiya - bu ta'lim shakllari, usullari, vositalarining maxsus to'plami va tartibini belgilaydigan psixologik va pedagogik munosabatlar majmui.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yuzdan ortiq ta'lim texnologiyalari qo'llanilmoqda, jumladan:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar;
- muammoli ta'lim texnologiyalari;
- axborot-kommunikasiya texnologiyalari;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari;
- o'yinli texnologiyalar
- TRIZ texnologiyasi va hokazo.



1-rasm. Pedagogik texnologiya tiplari

Pedagogik texnologiyaning asosiy talablari (mezonlari):

- Konseptuallik
- tizimlilik
- Boshqarish
- Samaradorlik
- Reproduktivlik

Ta'lim texnologiyasining tuzilishi uch qismdan iborat:

* Konseptual qism texnologiyaning ilmiy asosidir, ya'ni uning poydevoriga qo'yilgan psixologik va pedagogik g'oyalar.

* Kontent qismi - bu o'quv materialining umumiy, aniq maqsadlari va mazmuni.

* Amaliy qism - bu bolalarning o'quv faoliyatining shakllari va usullari, materialni o'zlashtirish jarayonini boshqarish bo'yicha pedagogning faoliyati, o'quv jarayonining diagnostikasi.

O'yin texnologiyalari pedagogik yo'nalishiga ko'ra, muayyan konseptual ta'lim texnologiyalari zahirida qo'llanadi. Xususan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim umume'tirof etilgan konseptual ta'lim texnologiyasi hisoblanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi bola shaxsini butun bir ta'lim tizimi markaziga qo'yadi va unga tabiatan berilgan o'z qobiliyatini ro'yobga chiqarishi uchun har tomonlama qulay, xavfsiz, erkin shart-sharoit yaratadi. U ta'lim oluvchi shaxsida mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi xususiyatlarni sifatlarini tarbiyalaydi. Ta'lim oluvchi o'ziga xos takrorlanmas tabiati, xarakter xususiyatini faollashtirishga, namoyish qilishga intiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi quyidagilarni qamrab oladi:

- shaxsga insonparvarlik yondashuvi; hamkorlik texnologiyasi;
- o'yin texnologiyasi;
- kommunikativ ta'lim texnologiyasi;
- bolani qo'llab-quvvatlash texnologiyasi.

Xulosa. Demak, texnologiyalar yuqorida sanab o'tilgan barcha talablarga javob berishi kerak. Maktabgacha ta'limning zamonaviy texnologiyalari barcha ishtirokchilari (bolalar, xodimlar, ota-onalar) hamkorligida amalga oshiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlikni shakllantirishda loyiha texnologiyasidan faol foydalanish tavsiya etiladi, chunki ushbu texnologiya yordamida turli hayotiy vaziyatlar asosida bolaning ichki dunyosiga kirib borish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Савенкова Т. Д. К вопросу о развитии лидерства у детей в старшем дошкольном возрасте / Т. Д. Савенкова, С. И. Карпова // Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Серия: Гуманитарные науки. 2020. № 8. С. 100–105
2. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent, O'qituvchi. 2004, 104 b.
3. Подласый И. П. Педагогика. Новый курс. В 2 кн. Кн. 1: Общие основы. Процесс обучения. –Москва: Владос, 2001. –С. 475 – 476
4. Berdaliyeva G. Maktabgacha ta'limda badiiy matn bilan ishlash metodikasi. Darslik. Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2020, 358 b.